

## „SO'NGGI SABOQ" ASARIDA MILLAT TAQDIRI

Ashurova Sojida Abdusamad qizi

Termiz Davlat Pedagogika instituti 1-bosqich talabasi

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada „So'nggi saboq" asari orqali inson hayotida uning qadriyatlari: tili, urf-odati, huquqi, madaniyati nechog'lik ahamiyat kasb etishi va uning tutgan o'rni haqida fikr yuritiladi.

**Kalit so'zlar:** qadriyat, til, adabiyot, millat, ma'naviyat, mustamlaka, mustaqillik  
Inson ma'naviyatining dahosi bo'lgan adabiyot ne-ne iste'dodlarni ulg'aytirmadi deysiz, ana shunday so'z ustalaridan biri, fransuz xalqining buyuk yozuvchilari: Hans Kristian Andersin „Kichkina shag'zoda", Sharl Perro „Zolushka" kabi ijodkorlari safidan munosib o'rin olgan, o'z ijodi va yo'nalishiga ega bo'lgan adib Alfons Dode.

Adib qisqa umri davomida sermazmun va salmoqli ijod qildi, uning qalamiga mansub asarlar hali- hanuz katta-yu kichik tilidan birdek samimiy hikoya qilinadi. Fransuz adabiyotining sevimli yozuvchisi A. Dode millatining barcha hissiyotlari: quvonch, iztirob, shukronalik, alam va shodlik tuyg'ularini o'z asarlarida boricha tasvirleydi. Ijodkor qalamining o'tkirligi, kichik asarda katta bir davrni yoritib berishi ham uning qay darajada iste'dodli yozuvchi ekanligini bildiradi.

Uning hayoti va ijodiga nazar tashlaydigan bo'lsak „Alfons Dode 1940-yil 13-mayda Fransiyaning Nim shahrida dunyoga keladi." [1] Yoshlik davrlari 2-jahon urushi endi tugagan yillarga to'g'ri keldi. Shu vaqtlarda ko'p insonlar og'ir qiyinchiliklarni boshidan o'tkazgani kabi ularning oilasi ham bu azob-uquvvatlardan chetda qolmadi, ballki shu voqealar sababli yozuvchi asarlarida aynan yoshlik chog'idagi viqeahodisalarni biz kitobxonlarga turli xil ranglarda hayajon bilan so'zlab berar. Adib ijodiga mansub bo'lgan „Tegirmonimdan xatlar" deb nomlangan hikoyalar to'plami va avtobiografik xarakterga ega bo'lgan „Kichkintoylar" romani fransuz xalqi qalbidan chuqur o'rin olgan. Bundan tashqari „Tarasanlik tartaranning sarguzashtlari", „Kichik froman va katta risler", „Roza va Ninetta" kabi bir qator romanlar muallifi hisoblanadi. Biz quyida keltiradigan asarda esa yozuvchi o'zi va xalqining boshidan kechirgan voqealarni so'zlab beradi. Biz bilamizki, Yer yuzidagi elat vakillari o'z tili, dini, urf-odati, an'anasiga ega va aynan shu qadriyatlari ularni bir-biridan farqlab turadi. Taniqli adibimiz Abdulla Avloniy ta'biri bilan aytganda „Har bir millatning dunyoda borlig'ini ko'rsatadigan oynai hayoti til va adabiyotdir. Milliy tilni yo'qotmak, millatning ruhini yo'qotmakdir." [2] Shu ma'noda Alfons Dode ijodiga mansun „So'nggi saboq " asarida fransuz xalqini o'z mustaqilligidan judo qilgach, ma'naviy



boyligi bo'lmish tili va adabiyotini ham tag-tomiri bilan yulib tashlamoqchi bo'lgan mustamlakachi davlatlarning yovuz siyosati yozuvchi tomonidan ro'y-u rost yoritiladi. Shu yovuz kuchlar xalqning ona tilini yo'q qilib, millat ruhini, an'ana-yu qadriyatlari ildiziga bolta urishmoqchi, uni o'tmish tarixi-yu kelajagidan judo qilib, o'ziga qaram qilmoqchi bo'lishadi. Asarda fransuz xalqining ma'lum muddat Germaniya ta'sir doirasiga tushib mustamlakaga aylangan davri jarayonlari yoritiladi. Voqeliklar ketma-ketligi esa kichik maktab o'quvchisi Frans tilidan hikoya qilinadi. Asarni o'qish chog'ida har bir holat kitobxon xayolida gavdalanadi. Fransning darsga kirish o'rniga o'rmonda sayroqi qorayaloqlarning kuylayotganini eshitishi-yu, taxta yo'nish zavodi ortidagi River o'tlog'ida nemislarning safda yurish mashg'ulotlarini bajarayotganliklarini tomosha qilishi, o'qituvchidan qo'rqib sinfxona eshigi yonida turishi-yu, kekxa Xauzerning sinfxonaning oxirgi partasiga o'tirib, chetlari yirtilib ketgan eski alifboni titroq ovozda o'qishi buning barchasi yozuvchining bebaho mehnati natijasidir.

Ushbu asar „O'sha kuni ertalab maktabga juda ham kech qolayotgan edim. Muallimdan tanbeh eshitishimni eslasam, yuragim orqaga tortib ketardi" - deb boshlanadi. Chunki shu kuni Frans uyga berilgan vazifa, ya'ni sifatdosh qoidalarini yodlamagan edi. Shuning uchun u darsga kirmaslikni ham o'yladi, ammo keyin bu fikrining noto'g'ri ekanligini angladi. Bu yoshdagi bolalarda Fransda bo'lgani kabi biroz dangasalik odatlari bo'lib turishi mumkin, bu ham bolalik chog'ining bir bebosh davri. Frans darsga kechikib borganligi uchun o'qituvchidan gap eshitaman deb o'ylagan edi, ammo uning o'qituvchisi janob Amel tamoman teskarisini qildi. U Fransga qarab „Qani Frans o'g'lim kira qol, biz sensiz darsni boshlamoqchi bo'lib turgan edik" -dedi. Aslida, o'sha kuni u g'ala-g'ovur ichida bildirmasdan sinfxonaga kirmoqchi bo'ldi, lekin aksiga olib bugun hamma yoq suv quygandek jim-jit edi. Bu sukunatning sababini esa u keyinchalik bilib oldi. O'qituvchining „Bolalar bugun siz bilan so'nggi bor dars o'tishimiz Berlindan Elzas va Lotaringiya maktablarida faqat nemis tili o'tilishi haqida buyruq kelgan, iltimos darsga e'tiborliroq bo'linglar"- degan shu birgina so'zi Fransga juda kuchli ta'sir qiladi. Shunda hattoki u daraxtdagi kaptarlarni ham nemischa kuylashga majbur qilish kerakdir? -deya o'ylanadi. Tarixdan bilishimiz mumkinki, Fransiya va Germaniya o'rtasidagi urush ancha vaqt davom etdi. „1870-yilda boshlangan Fransiya-Prussiya urushi 1940-yillarda ham davom etib kelmoqda edi. Oxir-oqibat bu kelishmovchilik Fransiya davlatining mag'lubiyati bilan yakunlandi va uning tarkibida bo'lgan Elzas va Lotaringiya hududlari Germaniyaga tovon sifatida qo'shib berildi." [3] Ona tilining yo'q qilinishi fransuz xalqi uchun katta judolik. Millatni tilidan mahrum qilish - bu xalqni yo'q qilish bilan barobar edi. Zero taniqli adibimiz



Ch. Aytmatov aytganidek,, Til o'z tiliga mansub xalqning milliy pasportidir."[4] Sababi uning suhbatini ham, yozuv xatlari ham, savdo aloqalari- barchasi ona tilida amalga oshadi. Mustamlaka davlatlarda esa bu kabi hodisalar o'z tilida emas, balki o'zga tilda olib boriladi. Oqibatda jamiyat a'zolari ona tilini unutishadi va o'zga bir til ularning hayotidan muhim o'rin egallaydi. Shu tariqa millat ma'naviyatining bir qismini yo'q qilishadi. Janob Amel ushbu maktabda qirq yil davomida halol mehnat qilib ishlaydi. Unga maktabdagi har bir o'quvchi, buyum, o'simlik qadrlil bo'lib qoladi, shu sababli ham bugun oxirgi bor dars o'tayotganligini o'ylab juda xafa edi. Frans berilgan vazifani yod olmagan uchun rostdan uyaldi. „, Qani edi sifatdosh qoidalarini baland ovozda tutilmasdan dona -dona qilib aytib bera olsam"- deb o'ylar edi, lekin hammasini chalkashtirib yuboradi, o'qituvchi buning uchun bolani koyimaydi. „,Frans o'g'lim shundoq ham jazolanganingni bilsang kerak, har safar qayoqqa ham shoshildim, ertaga yodlayman deb o'ylaysan, oqibati nima bo'ldi. Biz elzasliklar doim o'qishni ortga suramiz fojiamiz ham shunda" -deya ta'kidlaydi. O'ylab qarajak, biz insonlar doim keyin o'qiymiz, o'rganib olamiz deymiz, lekin o'rganishga imkoniyat bo'lmasligi mumkinligini hech o'ylab ko'rmaymiz, Fransuz xalqi ham bu fikrning xato ekanligini, nega ertaroq ona tillarini chuqurroq o'rganishga harakat qilmaganligini afsus bilan eslashmoqda. O'sha kuni janob Amel sinf taxtasiga chiroyli qilib „,Fransiya, Elzas. Fransiya, Elzas " dars so'nggida esa „,Yashasin Fransiya!" -deb yozdi. U qalbiga tinchlik bermagan Vataniga bo'lgan cheksiz muhabbatini tilida ifodalay olmas edi, chunki bunga jur'ati yetmas edi, shuning uchun ham bu mehrga to'la, samimiy so'zlarni yozuv orqaligina ifodalay oldi. Fransuz xalqini o'z tillarini vaqtida o'rgana olishmagani, vaqt borligida xohish yo'qligi, endi esa xohlansa ham bunga imkoniyatning yo'qligi qiynar edi.

Aynan mustamlakachi Germaniya davlati ham sizningcha nima uchun eng avval o'zi bosib olgan xalqni tilidan, qadriyatlaridan judo qilishga harakat qilgan? Ularning ma'naviy boyligini o'ldiribgina o'zlarining boshqa maqsadlariga ham erishishi mumkin ekanligini bilar edi. Fransuz xalqining buyuk farzandi Alfons Dode ham millatining dardini o'z tildan mahrum qilinishi bilan belgilaydi.

Asardan ma'lum bo'lgani kabi har bir xalqning ona tili milliy qadriyatlarning ajralmas qismi. Dunyo mamlakatlari safidan munosib o'rin egallamoqchi bo'lsak ham ona tilimiz va adabiyotimizning boy ma'naviy xazinasini yordamidagina erisha olamiz. Hozirgi tinch kunlarimizga shukronalar aytib, bir-birimizning qadriyatlarimizni hurmat qilib, mushohada va mulohaza bilan umrguzaronlik qilish har birimizning ma'naviyatimizning nechog'lik boy va mustahkamligini ko'rsatadi. Zero, dono xalqimiz bejizga „,O'zingni er bilsang, o'zgani she'r bil"[5] - deb aytishmagan. Asarning aynan



„So'nggi saboq " deb atalishining sababi ham barcha voqealar o'sha so'nggi darsda ro'y beradi. Birgina shu oxirgi dars barcha o'quvchilarning xotirasida o'chmas, salbiy taassurot qoldirdi va bir umr xulosa chiqarishga arziydigan hayotiy saboq bo'ldi. Ular shu darsda o'z qadriyatlarining qay darajada ulug'vorligini, o'qituvchilik kasbining mashaqqatlari -yu, ozod Vatan va mustaqillik deb atalmish buyuk ne'matning insonlar hayotida qanchalik ahamiyatli ekanligini tushunib yetdi.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Boqijon To'xliyev, Bahodir Karimov, Komila Usmonova „Adabiyot" 10-sinf II qism darslik, Toshkent-2017(171- bet).
2. Abdulla Avloniy hikmatli so'zlaridan olindi.
3. „Daryo" saytidan topildi.
4. Nosir Fozilov „Noshir va Nosir so'zi" Toshkent- „O'zbekiston" -2015 (71- bet).
5. O'zbek xalq maqoli

